



**JAMILA ERGASHEVANING “DEVOR” VA GI DE MOPASSANNING
“MARJON SHODASI” HIKOYASIDA BADIY DETALNING
QO‘LLANISHI**

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Gi de Mopassanning “Marjon shodasi” va Jamila Ergashevaning “Devor” hikoyalarida badiiy detalning qo‘llanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida har ikki asardagi markaziy detallar – marjon va devorning poetik funksiyalari, obrazlar xarakterini ochishdagi o‘rni hamda muallif g‘oyasini ifodalashdagi ahamiyati o‘rganildi. Tahlillar natijasida “Marjon shodasi” hikoyasida detalning syujet va konfliktni rivojlantiruvchi vosita sifatida, “Devor” hikoyasida esa inson ruhiyati va ma'naviy begonalashuvni ifodalovchi ramziy unsur sifatida qo‘llanilishi aniqlandi. Har ikki asarda badiiy detal muallif konsepsiyasini yoritishda muhim poetik vosita vazifasini bajarishi ilmiy asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy detal, qiyosiy tahlil, poetika, realizm, ramz, marjon, devor, obraz, psixologizm, konflikt, badiiy talqin, hikoya poetikasi, Jamila Ergasheva, Gi de Mopassan.*

**THE USE OF ARTISTIC DETAILS IN GI DE MOPASSAN’S STORY
“CORAL BEAD” AND JAMILA ERGASHEVA’S STORY “WALL”**



Abstract: *This article provides a comparative analysis of the features of using artistic detail in Gi de Mopassant's short stories "The Coral Necklace" and Jamila Ergasheva's "The Wall". In the course of the research, the poetic functions of the central details in both works - the necklace and the wall - were studied, along with their role in revealing the characters and their significance in expressing the author's idea. As a result of the analysis, it was determined that in the story "The Coral Necklace" the detail is used as a means of developing the plot and conflict, and in the story "The Wall" it is used as a symbolic element expressing the human psyche and spiritual alienation. In both works, it is scientifically substantiated that the artistic detail serves as an important poetic tool in illuminating the author's concept.*

Keywords: *artistic detail, comparative analysis, poetics, realism, symbol, necklace, wall, image, psychologism, conflict, artistic interpretation, story poetics, Jamila Ergasheva, Guy de Maupassant.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ДЕТАЛИ В РАССКАЗЕ “КОРАЛЬНОЕ БУМБО” ГИ ДЕ МОПАССАНА И “СТЕНА” ДЖАМИЛЫ ЭРГАШЕВОЙ

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ особенностей использования художественной детали в рассказах Ги де Мопассана “Коралловое ожерелье” и Джамилы Эргашевой “Стена”. В ходе исследования были изучены поэтические функции центральных деталей в обоих произведениях - ожерелья и стены, их роль в раскрытии характера образов и их значение в выражении авторской идеи. В результате анализа было установлено, что в рассказе "Коралловое ожерелье" деталь используется как средство развития сюжета и конфликта, а в рассказе “Стена” - как символический элемент, выражающий человеческую психику и*



духовное отчуждение. Научно обосновано, что в обоих произведениях художественная деталь служит важным поэтическим средством в освещении авторской концепции.

Ключевые слова: *художественная деталь, сравнительный анализ, поэтика, реализм, символ, коралл, стена, образ, психологизм, конфликт, художественная интерпретация, поэтика рассказа, Джамия Эргашева, Ги де Мопассан.*

Badiiy adabiyotda detal asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. U obraz xarakterini yoritish, voqealar rivojini ta'minlash, muallifning estetik qarashlarini ifodalash hamda asarning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hikoya janrida badiiy detalning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kichik hajmli asarda yozuvchi ko'pincha bir yoki bir necha detal vositasida katta hayotiy haqiqatlarni ifodalashga intiladi.

Jahon va o'zbek adabiyotida badiiy detalning poetik imkoniyatlaridan samarali foydalangan ijodkorlar ko'p uchraydi. Fransuz realizmining yirik vakili Gi de Mopassan hamda zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandalaridan Jamila Ergasheva ijodida detalning badiiy-estetik vazifalari yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, Mopassanning "Marjon shodasi" hikoyasida marjon obrazi syujetning markaziy unsuri sifatida qahramonlar taqdirini belgilovchi vosita bo'lsa, Jamila Ergashevaning "Devor" hikoyasida devor detali insonlar o'rtasidagi ma'naviy masofa, ruhiy begonalashuv va ijtimoiy munosabatlarning ramziy ifodasiga aylanadi. Mazkur asarlar turli davr va adabiy muhit mahsuli bo'lishiga qaramay, ularda badiiy detalning g'oyaviy yuk tashuvchi vosita sifatidagi o'rni mushtarakdir. Shu bilan birga, detalning qo'llanish usuli, poetik funksiyasi va ramziy ma'nolari jihatidan muayyan farqlar ham mavjud. Ushbu farqlarni qiyosiy o'rganish badiiy detalning janr poetikasidagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.



Mopassanning “Marjon shodasi” hikoyasidagi eng muhim badiiy detal marjon shodasidir. Matilda Luazel oʻzini yuqori tabaqa vakili sifatida koʻrsatish istagida dugonasidan qimmatbaho marjonni qarzga oladi. Balo marjonning yoʻqolishi bilan boshlanadi. Natijada qahramon va uning eri katta qarzga botib, oʻn yil davomida mashaqqatli hayot kechiradilar. Shunday qilib, marjon oddiy bezak buyumi emas, balki asardagi barcha voqealarni harakatga keltiruvchi kompozitsion markaz vazifasini bajaradi. Agar marjon boʻlmaganida, hikoyadagi asosiy konflikt ham yuzaga kelmagan boʻlardi. Marjon hikoyada insonning yolgʻon orzulari va tashqi dabdabaga intilishining ramzi sifatida namoyon boʻladi. Matilda hayotning asl qadriyatlaridan koʻra tashqi koʻrinish va boylikka koʻproq ahamiyat beradi. U oʻzining oddiy hayotidan norozi boʻlib, boylar dunyosiga mansub boʻlishni orzu qiladi. Asar yakunida marjonning aslida soxta ekanligi maʼlum boʻladi. Ushbu detal yozuvchining asosiy gʻoyasini ochishga xizmat qiladi: inson baʼzan yolgʻon qadriyatlarga aldanib, butun umrini behuda sarflashi mumkin. Marjonning soxtaligi Matildaning hayotiy qarashlari ham maʼlum maʼnoda soxta ekanligini anglatadi. Kiyim-kechak detallari va qahramon xarakteri Mopassan qahramon ruhiyatini ochishda kiyim-kechak detallaridan ham mahorat bilan foydalanadi. Matildaning balga kiyadigan koʻylak haqidagi tashvishlari uning xarakteridagi manmanlik va dabdabaparastlikni koʻrsatadi. U oʻzini jamiyatda yuqori mavqega ega inson sifatida koʻrsatishga harakat qiladi. Bal kechasidagi nafis kiyimlar va taqinchoqlar Matildaning orzu qilgan hayotini ifodalasa, keyingi yillardagi eskirgan kiyimlar, qoʻpol mehnat natijasida oʻzgargan tashqi qiyofa uning fojeali taqdirini aks ettiradi. Demak, kiyim detallari qahramon hayotidagi oʻzgarishlarni koʻrsatadigan muhim vositaga aylanadi. Hikoya boshida Luazellar yashaydigan tor va kamtarona uy tasvirlanadi. Bu detallar qahramonlarning ijtimoiy ahvolini koʻrsatish bilan birga, Matildaning ichki noroziligini ham ochib beradi. U oddiy uy jihozlarini koʻrgan sari oʻzini baxtsiz his qiladi. Asarning keyingi qismida qarzlarni toʻlash uchun olib borilgan ogʻir mehnat tasvirlari ham mayda maishiy detallar orqali ifodalanadi. Suv



tashish, uy yumushlarini bajarish, tejamkorlik bilan yashash kabi tasvirlar qahramonning ruhiy va jismoniy o'zgarishini yaqqol ko'rsatadi.

Jamila Ergashevaning "Devor" hikoyasida predmet detalidan foydalanilgan. Hikoyada qatnashgan *hovli-joy, devor, mevali daraxtlar, yomg'ir qirchumolilar, beshik* detallari o'ziga xos ramziy ma'no ifodalagan va hikoyasining asl mazmunini ochib berishga xizmat qilgan. Badiiy asar syujetiga aloqador eng kichik muammolardan biri —badiiy detal va tafsilotlardir. Chunki "Detallami haqqoniy tasvirlashdan tashqari, tipik xarakterlami tipik sharoitda tasvirlash — realizmdir", degan ta'rifni ko'pchilik yod biladi. Bundan ko'rinadiki, syujet voqealari (tipik sharoit) tipik xarakterlami namoyon qilarkan, bu vazifani detallarsiz, detallarning haqqoniyligi, aniqligi, ta'sirchanligisiz to'la ro'yobga chiqara olmaydi. Demak, asar detalsiz (uni "zarra" deb atasak), tafsilotsiz yashay olmaydi.

"Devor" hikoyasi yomg'ir yog'ishi va Toshpo'latning ishxonasida turib uyidagi devor haqidagi o'ylashidan boshlanadi. Toshpo'lat onasini gapiga kirib, singlisiga tomorqadan yashash uchun yer ajratib beradi, ammo kuyovi uy solishda xatò qiladi. Uyni hovlining o'rtasidan solidi, natijada olti derazalik uyni hammasi Toshpo'lat hovlisiga qarab qoladi, xonadonda uchta qiz borligi hamda har doim oynalardan kimdir poylab turgandek bo'lgani uchun Toshpo'lat o'rtadan devor uradi. Unda ham Toshpo'latga singlisi ham kuyovi ham yordam bermaydi, katta o'g'li bilan devorni qurib bitqizadi. Singlisi devor tagiga anor ekib chiqadi. Anorlar har sug'orilganida devor tagiga suv kirib, uni zararlaydi. Toshpo'lat singlisiga: *"Singil, devor o'rtalik. Oldin mayli deb o'zim ko'targan edim. Agar manavi uyda tarnov-parnov bo'lganda, bu devor yuz yil turib berardi. Kamiga anor ekding. Endi devorni birgalashib ko'taramiz. Men ham jo'jabirday jonman. Oldinda katta-katta xarajatlar turibdi.*

— *E-e, aka, bu devorning menga umuman keragi yo'q. Xarajatlaringiz ko'p bo'lsa, devor deb boshingizni og'ritib o'tirmang. Osmondan yoqqan Ollohning qor-yomg'iri uchun ham meni aybdor qilmang. Akamning devorini yiqitayin deb,*



tomning ustiga chiqib, chelaklab suv quyib o'tirganim yo'q. Undan ko'ra, ikkita mardikor olib kelib manavi yerlarni tozalatib tashlang. E-e, xudo, aka ham ota o'rnida, deganlari bekor gap ekan." deb javob beradi. Shuning uchun Toshpo'lat singlisidan ranjiydi, singlisi esa o'z haqqini himoya qiladi. Ular bir-biridan uzoqlashib, hatto gaplashmay qo'yishadi. Hikoyadagi "devor" faqat g'ishtdan qurilgan devor emas, balki insonlar qalbi orasida paydo bo'lgan sovuqlik va begonalik ramzi hisoblanadi. Shuningdek, hikoyada Toshpo'latning kasbdoshi ham bor, uning uyidan tinimsiz qirchumolilar chiqadi. *"Bu odamda qirchumolilar haqida shunday dahshatli ma'lumotlar ko'p ediki, uni tinglayotganlar xuddi badanida qirchumoli o'rmalab yurganday, eti jimirlab ketar, qancha paytlar uyidagi har bir hasharot ko'ziga qirchumoli bo'lib ko'rinib ketaverardi. Bir ofat bilan yigirma yil olishgach, har qanday odam o'zi ofatga aylanmasa ham, vahimaga aylanib qoladi, shekilli. Birinchi uyidan qirchumoli chiqqanda unchalik ko'p kuymadi. Har joydan qirchumolilar haqida ma'lumot to'plab, ular haqidagi vahimali gurunlar bilan hammani qo'rqitib yurib-yurib, hovlisining adog'idan uy tashladi. Hokimiyat qishloqning narigi boshidan yer ajratgan ekan, unamapti: "Bu yerlarda mening yetti otam o'tgan. Men uni qayerdagi qirchumolilarga tashlab keta olmayman. Hali bu qirchumolilarning kunini ko'rsataman", debdi. Yangi uyini qiynalib bo'lsa-da, faqat tsement va pishiq g'ishtdan ko'tardi, qirchumolilarning sevimli ozuqasi bo'lgan yog'och va tuproqni umuman ishlatmadi... Ammo bir kuni nevarasining beshigida qirchumolini uchratganda o'kirib yubordi..."*

Hikoyadagi detallar "devor" - aka-singil o'rtasidagi uzoqlik, sovuqchilik, "yomg'ir" va "suv" - bu hayot sinovlari, "qirchumolilar" – bardoshlilik, "hovli, uy-joylar" – bu dunyoni ifodalab kelmoqda. Detallarga e'tibor qaratilsa har biri ikki xil ma'noda kelmoqda, shuningdek, devor detali hikoyada obraz darajasiga ham chiqdi va hikoya nomiga aylandi. Asar oxirida Toshpo'lat tushida onasini ko'radi va o'zini aybdor his qiladi. U devordan ko'ra aka-singillik rishtasi muhimroq ekanini anglay



boshlaydi. Hikoya insoniy mehr, kechirim va qarindoshlik qadri haqida chuqur ma'no beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Marjon shodasi” hikoyasidagi marjon detali syujetni harakatga keltiruvchi kompozitsion markaz ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu detal qahramonlarning hayotiy fojeasiga sabab bo‘lish bilan birga, tashqi boylik va soxta qadriyatlarning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. “Devor” hikoyasidagi devor detali esa insonlar o‘rtasidagi ruhiy masofa, ma'naviy begonalashuv va ijtimoiy munosabatlardagi uzilishlarning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Mopassan detal vositasida realizm estetikasiga xos ravishda ijtimoiy muammolarni yoritgan bo‘lsa, Jamila Ergasheva zamonaviy hikoyachilik an‘analariga tayangan holda inson ruhiyati va ma'naviy olamidagi murakkab jarayonlarni tasvirlaydi. Bu esa badiiy detalning turli davr va adabiy muhitlarda turlicha poetik vazifalarni bajarishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mopassan G. Marjon shodasi. – Toshkent: Jahon adabiyoti nashriyoti, 2018.
2. Ergasheva J. Devor // Zamonaviy o‘zbek hikoyalari to‘plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.